



SOCIAL PARTNERSHIP IN MATERNITY AND CHILDHOOD, PROTECTION OF WOMEN'S RIGHTS, AND FORMATION OF A HEALTHY FAMILY

Enajon Nishanbayeva

Associate Professor, Faculty of Social Sciences
National University of Uzbekistan (NUUz)
Email: enahon235@gmail.com

Ra'no Abduvaitova

3rd-Year Student, "Political Science" Program
National University of Uzbekistan (NUUz)
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: social partnership, motherhood and childhood, women's rights, healthy family, non-governmental non-profit organizations, Women's Committee of Uzbekistan, women's employment, social protection, civil society, independence period.

Received: 14.09.25

Accepted: 15.09.25

Published: 16.09.25

Abstract: This article analyzes the measures implemented in Uzbekistan during the years of independence to protect women's rights, safeguard motherhood and childhood, promote the formation of a healthy family, and develop social partnership mechanisms. It highlights that enhancing the role and status of women in the country's socio-political life has been one of the priority areas of state policy. In particular, the Law "On Social Partnership," which serves as the main legal basis in this field, is discussed.

ONALIK VA BOLALIK, XOTIN-QIZLARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH, SOG'LOM OILANI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOYIY SHERIKLIK MASALALARI

Enajon Nishanbayeva

O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti dotsenti
E-mail: enahon235@gmail.com

Ra'no Abduvaitova

O'zMU "Siyosatshunoslik" yo'nalishi
3-bosqich talabasi
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ijtimoiy sheriklik, onalik va bolalik, xotin-qizlar huquqlari, sog'lom oila, nodavlat notijorat tashkilotlari, Xotin-

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, onalik va

qizlar qo‘mitasi, ayollar bandligi, ijtimoiy himoya, fuqarolik jamiyati, mustaqillik davri.

bolalikni muhofaza etish, sog‘lom oilani shakllantirish hamda ijtimoiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinadi. Unda davlat siyosatida ayollarning o‘rni va maqomini yuksaltirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanganligi, jumladan “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonun asosiy huquqiy baza sifatida muhokama qilinadi.

СОЦИАЛЬНОЕ ПАРТНЁРСТВО В ВОПРОСАХ МАТЕРИНСТВА И ДЕТСТВА, ЗАЩИТЫ ПРАВ ЖЕНЩИН И ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОЙ СЕМЬИ

Энажон Нишанбаева

Доцент факультета социальных наук

Национальный университет Узбекистана (НУУз)

Эл. почта: enahon235@gmail.com

Ра'но Абдуваитова

Студентка 3-го курса направления «Политология»

Национальный университет Узбекистана (НУУз)

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: социальное партнёрство, материнство и детство, права женщин, здоровая семья, неправительственные некоммерческие организации, Комитет женщин Узбекистана, занятость женщин, социальная защита, гражданское общество, период независимости.

Аннотация: В данной статье анализируются меры, реализованные в годы независимости Узбекистана по защите прав женщин, охране материнства и детства, формированию здоровой семьи, а также по развитию механизмов социального партнёрства. Подчёркивается, что повышение роли и статуса женщин в социальной и политической жизни страны стало одним из приоритетных направлений государственной политики. В частности, обсуждается закон «О социальном партнёрстве», который служит основной правовой базой в данной сфере.

Kirish. Mustaqillik yillari O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ayollarning o‘rni va maqomini yuksaltirish davlat siyosatidagi o‘ta muhim ustuvorlik hisoblandi. Shu maqsadda ayollarning huquqlari himoya qilish, faolligini oshirish, onalik va bolalik muhofazasini yanada kuchaytirish yuzasidan davlatning samarali chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Ularni amalga oshirishda davlat bilan bir qatorda NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga alohida o‘rin ajratildi. Unga “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunning 5-moddasi[1] davlat boshqaruvi organlari bilan NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining shu sohadagi hamkorligi uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Mustaqillik yillarida ijtimoiy tanglikni oldini olishda tabiiyki NNTlar faolitiga ehtiyoj sezildi va 1991- yil 25 -fevral Respublika Xotin-qizlar kengashining II Plenumida ayollarning ijtimoiy, fuqarolik, madaniy va iqtisodiy huquqlarini himoya qiluvchi ilk jamoat tashkiloti O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tashkil topdi. "1991- yil 21- iyunida adliya idoralaridan birinchi nodavlat notijorat tashkilot hisob-langan O'zbekiston ishbilarmon ayollari «Tadbirkor ayol»[2] assotsiatsiyasi ro'yxatga olindi. Respublikada aholini ijtimoiy himoyalash, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan ilk jamg'armalardan yana biri "Navro'z" xalqaro xayriya jamg'armasi bo'ldi. 1992- yil 23- mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga asosan tashkil etilib, jamg'arma 9- sentabr 1993- yilda №49 (211)-son bilan ro'yxatiga olindi va Nizomi tasdiqlandi[3].

Shundan so'ng uchinchi yirik nodavlat notijorat tashkilotlardan biri bo'lgan O'zbekiston olim ayollari «Olima» uyushmasi davlat ro'yxatidan o'tdi[4]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996- yil 22- martdagi "Xotin-qizlar mehnatini ijtimoiy himoya qilish Dasturi" qabul qilinib, viloyatlar xotin-qizlar qo'mitalarida "Xotin-qizlar mehnatini ijtimoiy himoya qilish Dasturi"ga asosan maxsus ish rejalar ishlab chiqildi. Bundan tashqari shu yillarda respublikada «Ayol va salomatlik» uyushmasi, «Sharq ayoli» xalqaro jamoat fondi, «O'zbekiston huquqshunos ayollari»ning jamoat fondi, «Orolning oltin merosi» aqliy mehnat bilan band bo'lgan va ijodkor ayollarning jamoat birlashmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi qoshidagi «Ijodkor ayollar» jamoat birlashmasi va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarning faoliyati yo'lga qo'yildi.

1999 yil 14 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni[5] asosida bu jarayonlar yanada faollashdi.

Natija va muhokama

Mustaqillikning dastlabki yillarida bozor iqtisodiyotiga o'tish davri bilan bog'liq ijtimoiy muammolar sababli ko'plab xotin - qizlar nolegal migratsiya orqali xorijiy mamlakatlarga ishlab kelish uchun chiqib keta boshladilar va xotin-qizlar trafik (odam savdosi) qurbonlariga aylandilar[6]. Bunday tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan uyushgan transmilliy jinoyatchilik ko'rinishlaridan biri bo'lgan odam savdosi ham NNTlar mas'uliyatini oshirib yubordi. Jumladan 1998- yil 4- mayda tashkil etilib, 1999- yil 27- fevralda ro'yxatdan o'tgan "Madad" ishonch markazi viloyatdagi dastlabki nodavlat tashkilotlardan. Hususan manbalar o'rganilganda 2000- yil holatiga ko'ra, "Madad" ishonch markazi o'z faoliyati davomida zo'ravonlikka uchragan psixologik va huquqiy yordamga muhtoj 1006 nafar ayollar bilan ish olib borgan. Jumladan, 621 nafar ayollarga psixologik, 203 nafar xotin-qizlarga tibbiy va 107 nafar ayollarga huquqiy yordam ko'rsatilgan. 12 nafar ayol markaz ko'magida davolangan, 10 nafar ayol ishga joylashganligi

aniqlandi[7]. Shu o'rnida ta'kidlash lozimki, Bu borada NNTlar bilan izchil hamkorlik yo'lga qo'yildi. 2001- yilda "ISTIQBOLLI AVLOD" ijtimoiy-axborot markazi tashkil etildi. U respublikada mazkur transmilliy jinoyatga qarshi kurashishda yetakchi tashkilotlardan biri bo'lib qoldi. Markazning asosiy vazifalari odam savdosi va boshqa turdagi zo'ravonliklarning oldini olish va odam savdosi muhojirlar va aholining zaif qatlamlariga ijtimoiy-huquqiy xizmatlar ko'rsatish, infeksiyalarni xabardor qilish va ijtimoiy-huquqiy xizmatlarni taqdim yetish orqali zaif guruhlar o'rtasida jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar va OIV infeksiyasining tarqalish tezligini kamaytirish, odam savdosiga va boshqa turdagi zo'ravonliklarga qarshi kurashda ularni faollashtirish maqsadida yoshlarni jalb qilish kabilar. Shuningdek, Respublikada faoliyat olib borayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarining 100 ga yaqini odam savdosiga qarshi kurashish borasida bevosita o'z faoliyatini amalga oshirdi. "ISTIQBOLLI AVLOD" ijtimoiy-axborot markazi, uning viloyatlardagi bo'limlari hamda hamkor tashkilotlari o'zaro hamkorlik to'g'risidagi memorandum asosida odam savdosining oldini olish va undan jabrlangan ayollarni reabilitatsiya qilish ishlarini amalga oshirdi. Ushbu tashkilotlar 2004- yildan buyon dolzarb aloqa tarmog'i tashkil etib, noqonuniy migratsiya va uning salbiy oqibatlaridan biri bo'lgan odam savdosining oldini olish maqsadida aholi orasida axborot-profilaktik ishlarni amalga oshirdi.

Odam savdosiga qarshi kurashda O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi ham faol bo'ldi. Xotin-qizlar qo'mitasi qoshida turli yo'nalishlardagi uyushma, komissiya va to'garaklar xotin-qizlarning kasb mahoratlarini, ularning yetakchilik qobiliyatlarini oshirish, ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va turli targ'ibot ishlarini yuritishga ko'maklashdi. Xususan, "Ayol va sport" komissiyasi, "Ayol va ekologiya", "Huquqshunos ayol", "Ijodkor ayol", "Ayol va salomatlik", "Faxriy ayollar" kabi uyushmalar, "Rahbar ayollar", "Iqtidorli qizlar", "Orasta qizlar" to'garaklari tomonidan qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, qo'mitaning kichik biznes va tadbirkorlik yo'nalishida faoliyat yuritib kelayotgan nodavlat notijorat tashkilotlar ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalari orqali xotin-qizlar tadbirkorligi harakatlarini keng rivojlantirish va ularning bandligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Respublikasi Xotin - qizlar qo'mitasi tomonidan 2015- yil 12- iyun kuni "Ijtimoiy sheriklik" to'g'risidagi Qonun ijrosini ta'minlashda Xotin – qizlar qo'mitalarining o'rnini va istiqboli" mavzusida davra suhbatini o'tkazildi. Tadbirida Qonunning ahamiyati, Qo'mita tizimida hamkorlik mezonlarini belgilashdagi roli, shuningdek, Qonun mohiyatini asosli tarzda targ'ib etishga qaratiladigan jihatlari aniq belgilab olindi.

O'zbekistonda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harkatlar strategiyasiga muvofiq, davlat muhtoj aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan birga, o'z oilasining farovonligini ta'minlashga intiluvchilarga qulay imkoniyatlar yaratdi. Harakatlar strategiyasi doirasida xotin-qizlarning huquqlarini himoya

qilish masalalari yuzasidan Prezident SH.Mirziyoyevning quyidagi fikrini keltirish zarur, "... onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish, ayollarning turmush sharoitlarini hisobga olgan holda, ish bilan ta'minlash, opa-singillarimizning og'irini yengil qilish uchun har tomonlama imkoniyat yaratish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi o'rni va nufuzini oshirish bo'yicha davlat siyosatini faol davom ettirishni biz o'zimizning eng muhim vazifamiz, deb bilamiz"[8].

Onalik va bolalik, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish sog'lom oilani shakllantirish, "intilish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratishga alohida e'tibor qaratildi. 2018- yil 2- fevralda "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5325-sonli Farmoni bilan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi"[9]. Shu bilan birga, ijtimoiy sheriklik munosabatlari asosida onalik va bolalik, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ayollarning qaror qabul qilishdagi rolini oshirish mamlakatdagi ijtimoiy muammolarni yanada samarali hal qilish imkoniyatini yuzaga keltirdi.

Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini har tomonlama ta'minlashga, gender tenglik masalasiga oid 2 qonun, Prezidentning 14 farmon va qarori, 25 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. 2019- yilda «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi, «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»[10] gi qonun qabul qilindi. Onalik va bolalik, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, sog'lom oilani shakllantirish borasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini takomillashtirishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlandi. Masalan, davlat va nodavlat tashkilotlarining o'zaro hamkorligini qo'llab - quvvatlaydigan bir necha loyihalar ishga solindi. "Intilish" NNT bilan hamkorlikda olti oy davomida ozodlikka chiqarilgan ayollar, ularni ish bilan ta'minlash, kasb – hunarga o'rgatish borasida harakatlar olib bordi va bir necha oilalar o'z mablag'ida ega bo'lish yo'lini topdi Bundan tashqari, onalik va bolalik, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, sog'lom oilani shakllantirish sohasida aholi barcha qatlamlarining huquqiy savodxonligini yanada oshirish, xotin-qizlarga nisbatan yuzaga kelgan stereotiplarni o'zgartirish uchun davlat boshqaruvi organlari bilan NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining samarali ijtimoiy sherikligi zarurligini ham e'tirof etish lozim. Masalan, «Mehr» operatsiyasida jabr ko'rganlarni olib kelish jarayonida dastlab davlat tashkilotlari, keyin ikkinchi bosqichda olib kelinganidan keyin rehabilitatsiya bosqichida Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi va Istiqbolli avlod degan NNTlar faol

ishtirok etdi. Odam savdosiga kurashish sohasida yetakchi hisoblangan “ISTIQBOLLI AVLOD” O‘zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilgan “Mehr” operatsiyasida ishtirok etdi. «Mehr» operatsiyasi birinchi marta 2019- yil 30- mayida o‘tkazildi., «Mehr-1» operatsiyasida ayollar va bolalar, «Mehr-2» da esa faqat bolalar vatanga qaytarildi. 107 nafar bola va 48 nafar ayol Suriya va Iroqdan vatanga qaytarildi. 10- oktabrda esa 64 nafar bola Iroqdan olib kelindi. «Mehr-5» operatsiyasi doirasida 93 nafar o‘zbekistonlik-24 nafar ayol va 69 nafar bolalar Suriyadan Toshkentga olib kelindi. Jumladan, «Mehr» insonparvarlik operatsiyasi doirasida 2019- yilda Suriyadan 156 nafar o‘zbekistonlik, asosan, ayollar va bolalar, 2019 -yilning oktabrida Iroqdan 64 nafar o‘zbekistonlik bola, 2020- yilning dekabrda («Mehr-3») Suriyadan 25 nafar ayol va 73 nafar bola, 2021- yildagi «Mehr-4» operatsiyada esa 24 nafar fuqaro Afg‘onistondan O‘zbekistonga qaytarildi[11].

Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, oila institutini har tomonlama mustahkamlash yuzasidan mahalla va xonadongacha tushib boradigan tizim yaratildi. Mahallalarda oilalar bilan ishlash, har bir ayol va uning oila a‘zolariga individual yondashuvni tashkil qilish maqsadida xotin-qizlar faoli lavozimi joriy etildi va unga davlat xizmatchisi maqomi berildi. Mamlakatda “Gender tenglikni ta‘minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi”[12] tuzildi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida alohida qo‘mita tashkil etildi. «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi faoliyati qayta tashkil etilib, hukumat tuzilmasi tarkibiga kiritildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 26- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 229-sonli qarorining 5-ilova «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazining ustavi tasdiqlandi. Unda oilaning reproduktiv salomatligi va demografik rivojlanishini, uning farovonligi va xotirjamligini oshirish masalalarini kompleks o‘rganishni tashkil etish «Oila» markazining asosiy vazifalari biri sifatida belgilandi.

“Farovon oila - jamiyat ravnaqining asosi” degan konseptual g‘oyani ijtimoiy hayotga izchil tatbiq etish, oila institutini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ham amalga oshirildi. Har bir mahallada “Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi” samarali faoliyat ko‘rsatdi. Mahallalarda aholi turmush tarzini yaxshilash, ijtimoiy sohalar rivoji, ayniqsa aholining ish bilan bandligi masalasi ham muhim o‘rin tutdi. Mahallalarda olib borilgan ma‘naviy-g‘oyaviy tadbirlar natijasida 2018- yilning birinchi choragida 5 ming 680 ta mahallada jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmadi, ajralishlar soni keskin kamaydi. Biroq aksariyat hududlarda bu borada muammolar anchagina bo‘lib, ayrim hududlarda bu boradagi ko‘rsatkichlar oshgan. Masalan, fohishabozlik o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 86 taga ko‘paygan, jinoyat sodir etishga moyil 9 ming 885 nafar ayol aniqlangan. Shu tariqa, profilaktik hisobga olinganlar soni ham 765 taga o‘sgan, yani 2 ming 940 nafarga yetgan. O‘tgan davr mobaynida 659 nafar fuqaro o‘z joniga qasd

qilgan bo'lsa, 953 ta suiqasd holatlari kuzatilgan. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzurida Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi va uning hududiy bo'limlariga 2021- yilning 6 oyi davomida jami 5 958 nafar fuqaro murojaat qilgan bo'lsa, shundan 5 348 nafari, ya'ni 89,7 foizi ayollar bo'ldi. Ruhiy zo'ravonlikka uchraganlarning 1 766 nafari, ya'ni 93 foizini ayollar, jismo-niy zo'ravonlikka uchraganlarning esa 1 071 nafari, ya'ni 98 foizi ayollar bo'ldi. Oliy Majlis Senatining 2021- yilning aprelida o'tkazilgan yalpi majlisida 2020 yilda nomusga tegish jinoyati 27,7 foizga oshgan, reproduktiv salomatlikni, onalik va bolalikni muhofaza qilishga oid qonun hujjatlari ijrosini ta'minlashdagi kamchiliklar oqibatida go'daklar o'limi 428 taga, onalar o'limi 10 taga oshganligi ta'kidlandi[13]. Bu xususda tadqiqotchi V.Ishquvvatov shunday yozadi. "To'g'ri, bu o'rinda, mahalla tuzilmasining birgina o'zi barcha jabhalarni qamrab olishi, hamma muammo-lar hal qilishi mumkin emas. Shu bois, bugun mahallalarda jamoatchilik asosida faoliyat yuritayotgan komissiyalar tegishli idora va tashkilotlarga biriktirildi. Ammo, hali ularning ishida yetarlicha ijobiy siljishlar kuzatilmadi. "Ota-onalar universiteti", "Qaynonalar kengashi" va boshqa jamoatchilik tuzilmalari ishini ham ko'ngildagidek deb bo'lmaydi"[14].

Mamlakatimizda bolalar huquqlarini ta'minlash maqsadida bir qator muhim hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019- yil aprel oyida "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, "Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va boshqa hujjatlar shular jumlasidan bo'ldi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarda bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, bolaning hayoti va sog'lig'ini, qadr-qimmatini muhofaza qilish, uning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan davlat siyosatning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Amalga oshirilgan ishlar bilan birga, bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning barkamol avlod bo'lib yetishishini ta'minlash borasidagi faoliyatning institusional va huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish zarurati yuzaga keldi.

Xulosa

Yuqorida qayd etilgan qonun hujjatlarining qabul qilinishi onalik va "bolalik, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, sog'lom oilani shakllantirish borasida davlat boshqaruvi organlari bilan NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining ijtimoiy sherikligi imkoniyatlarini yanada kengaytirdi". Ayni chog'da, bu qonun hujjatlarining qabul qilinishi va yangi institusional tuzilmalarning shakllantirilishi ayollarni qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib sharoit yaratish, jamiyatda kechayotgan jarayonlarga faol jalb qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganidan hamda bu jarayonga fuqarolik institutlari faol jalb qilinayotganidan dalolat berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “Ижтимоий шериклик тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси қонуни.
<https://lex.uz/acts/2468214>
2. Асминкин Я.П. Ўзбекистон аёллар нодавлат нотижорат ташкилотлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 8 б.
3. Insopov A. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishi. O'quv qullanma. – Toshkent. 2024. – b. 61.
4. Ўз МА М - 80, 1-рўйхат, 907-иш, 124-125-варак.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Нодавлат нотижорат ташкилотлар тўғрисида”ги Қонуни // Халқ сўзи, 1999 йил 15 апрель.
6. Ганиева Г. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласи: янгича ёндошув, муаммолар ва ечимлар
(мустақиллик даври 1991 - 2005 й.). Тарих фанлари тарих фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 2006. – Б.125.
7. Асминкин Я.П. и др. Женские негосударственные некоммерческие организации Узбекистана. Справочник. – Ташкент: 2000. – с. 51-52.
8. Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. 14.12.2016. <https://president.uz/uz/lists/view/111>
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 февралдаги “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5325-сонли Фармони.
<https://lex.uz/docs/3546742/>
10. «Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикаси қонуни // <https://www.lex.uz/docs/4494709>
11. “Меҳр-5” операцияси: 93 нафар ўзбекистонлик Суриядан олиб келинди.
<https://www.gazeta.uz/uz/2021/04/30/mehr/>. Мурожат қилинган сана 2024 йил 17 январь.
12. Ўзбекистон гендер тенгликни таъминлаш бўйича муҳим қадамларни қўймоқда // <https://strategy.uz/index.php?news=745>
13. Свыше 500 несовершеннолетних совершили суицидальные действия // <https://www.gazeta.uz/ru/2021/04/23/underage/>
14. Ишқувватов В. Ўзбекистонда ўзини ўзи бошқариш органларининг ривожлаиш тарихи (1991-2020 йй). Тар.фан.докт. (DSc) илм.дараж. олиш учун ёзилган дисс. ... - Тошкент. 2020. – 256.